



## ASALARI SUTI

**Bobomurzayeva Aslzoda Asqar qizi**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali talabasi*

**Mamatkulova Iroda Ergashevna**

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti Jizzax filiali katta o'qituvchisi*

**Anatatsiya:** *Asalari sutining kimyoviy tarkibi, foydaliligi, asalari sutini olish usulini va ularni saqlash o'rganish va choralari ko'rish.*

**Kalit so'zlar:** *apilaktoza, PP, pantotenik kislota, biotin, inozitol, foliy kislotasi, ergosterol, glutamin, aspragin, laringit branxit, prastata adenomasi, rom, konteyner.*

Asalari suti (apilaktoza)-asalari rivojlanishining barcha bosqichlarida bachadon lichinkalarini boqish uchun maxsus ozuqa bo'lib, nordon ta'mli o'ziga xos o'kir hidli suvdan og'irroq quyruq och sariq rangli kislotali muhitga ega pH 3,4-4,3 oralig'ida bo'lgan to'yimli moddadir. U ishchi asalari so'lak bezlaridan ajratib olinadi.[1]

**Kimyoviy tarkibi:** Kimyoviy tarkibi hozirgacha to'liq o'rganilmagan. Mustaqil taqiqotlarning ma'lumotlariga ko'ra asalari suti tarkibida 65-69% suv, 14-18% oqsillar, 2-6% lipidlar, 9-18% uglevodlar va 1-2% mineral moddalar bor. Bulardan tashqari asalari suti tarkibida B<sub>1</sub>, B<sub>2</sub>, B<sub>6</sub>, PP vitaminlari, pantotenik kislotasi, biotin, inozitol, foliy kislotasi, ergosterol, shuningdek jinsiy bezlar funksiyasini faollashtiradigan gonadotropik gormon mavjud. Shuni takidlash kerakki, asalari sutining tarkibi mukammal darajada muvozanatlashtirilgan. Undagi oqsillar inson qonidagi oqsillarga o'xshaydi. Bundan tashqari aminokislotalarning tarkibi go'sht, sut va tuxum bilan bir xil, ammo glutamin va asparagin kislotalar (lizin va prolin) boshqa mahsulotlarga qaraganda asalari sutidan ancha yuqori. [3,5]





## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

**Foydaliligi:** Asalari suti o'zining boy va o'ziga xos tarkibi tufayli turli kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Shamollashda va yurak qon tomirlarida gemoglobin tushib ketishligida, virusli kasalliklarida, ovqat hazim qilishda, markaziy asab tizimini normallashtirishda, erkaklarda jinsiy quvvatni oshirishda ya'ni rivojlantirishda, prastata adenomasi, prastatit va bepustlikda oshqozon o'n ikki ichak yarasi davolashda, angina, laringit, bronxit, ortiqcha semizlik va ortiqcha ozib ketishlikda, bosh og'rig'i, nerv kasalliklar, ko'z kasalliklari, og'iz bo'shliq kasalliklari va teri kuyishida foydalaniladi. Bundan tashqari bu maxsulotni farmasevtikada ham juda ko'p foydalaniladi. [2,6]

**Asalari sutini olish:** Asalari sutini ko'p miqdorda yig'ish uchun uning, uyasini yetimlantirish usuli orqali yaxshi natija olinadi. Bu usul bilan asalarining turiga qarab, misol uchun Kavkaz asalarilaridan bir marta 50-60 dona onalik katakchalari olish mumkin. Asalari sutini olish uchun avvalo uya ona arisidan ajratib olinadi. Yetimlantirilgan uyada ko'proq qadoqlangan urug'li rom, bir necha ozuqali rom va bir dona yangi urug'li romdan qoldirish maqsadga muvofiq. Chunki qadoqlangan romlar keyinchalik boquvchilar sonini ko'payishiga olib keladi. Oradan 5-6 soat o'tgandan keyin yetimlantirilgan uyaning o'rtasiga maxsus onalik katakchakarga yosh qurtchalar joylangan 2 dona rom joylashtiriladi. Asalarilar uyaga qo'yilgan maxsus katakchalarni 4 kun davomida asalari suti to'ldiradi va 4-5 kunlarda maxsus romlar yig'ib olinishi mumkin. Bu jarayon bir necha marta bir oydan ko'p bo'lmagan muddatda takrorlash mumkin. Bu jarayon amalga oshirish uchun oldindan tayyorlangan sanitariya qoidalariga mos bo'lgan xonada asalari sutini yig'ib olish amalga oshiriladi. Avvaliga qo'llar va barcha foydalaniladigan asboblari spirt bilan dezinfeksiyalanadi. Olib kelingan sutli katakchalardagi qurtchalar olib tashlanadi. [4,5]

**Asalari sutini saqlash:** Asalaridan olinadigan sutni ochiq havoda o'zining foydali xususiyatini yuqotishi sababli katakchalarda saqlash maqsadga muvofiqdir. Mahsulot uyadan tashqarida 10-15 daqiqadan so'ng sifatini yo'qota boshlaydi. Asalari sutini tabiiy holda saqlash uchun-katakchalarda maxsus germetik konteynerga joylanadi va sovitgichda 1,5-2C darajada yil davomida saqlash mumkin. Saqlashning yana boshqa usulida asalari suti shisha kolbachaga yig'ib olinadi va havo kirmaydigan qilib mum bilan muhrlab mahkamlanadi. Yana boshqa saqlash usulida sut asal yoki spirt bilan aralashiriladi. Ammo bu ikki holda mahsulotni uzoq saqlab bo'lmaydi. [1,4,5]

**Xulosa:** Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki, asalari sutidan yuqori sifatli mahsulotlarni olish uchun asalarichilikni rivojlantirishga e'tibor berish kerak.



## "INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022"

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N. F. Kraxotin. O'zbekistonda asalarichilik -T. Mehnat, 1991.
2. Royal Jelly: An ancient remedy with remarkable antibacterial properties // Microbiol Res. 2016 Nov; 192:130-41
3. ГОСТ 28888-90 Молочко маточное пчелиноею Технические условия
4. agronet.uz
5. asalarichilik.uz
6. <https://youtu.be/yZ1bp-fgg>